

O'ZBEKISTONDA SIYOSIY PARTIYALARNING JAMIYAT
HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Isroilov Davronbek Dilshodbek o'g'li

<https://orcid.org/0009-0000-7076-0679>

Andijon Davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

Egamberdiyeva Gulandon Ziyodillo qizi

Andijon davlat pedagogika instituti.

Ijtimoiy gumanitar va san'at fakulteti

“Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi”

yo'nalishi I bosqich talabasi

Anotatsiya: Davlatimiz demokratik islohotlarni yuksaltirish, fuqarolik jamiyatiga asoslangan faol fuqarolardan tashkil topgan erkin va farovon jamiyat qurish yo'lidan borara ekan bunday jamiyatni va demokratik rivojlangan davlatni qurishda siyosiy partiyalarning orni beqiyosdir. Chunki siyosiy partiyalarning hilma xilligi jamiyada turli qarashlarga ega bo'lgan jamiyat azolarining harbir qatlamini huquq va manfaatlarini ifoda etuvchi muhim bir siyosiy institutdir. Shuning uchunham harbir demokratik davlatda siyosiy partiyalar faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratiladi .

Annotation: The role of political parties in building such a society and a democratically developed state is incomparable as our country is on the path of promoting democratic reforms and building a free and prosperous society consisting of active citizens based on civil society.

Because the variety of political parties is an important political institution that represents the rights and interests of every layer of society members who have different views in the society.

That's why in every democratic country wide opportunities are created for the activity of political parties.

Anotatsiya: Роль политических партий в построении такого общества и демократически развитого государства несравнима, поскольку наша страна находится на пути продвижения демократических реформ и построения свободного и процветающего общества, состоящего из активных граждан, основанных на гражданском обществе.

Потому что многообразие политических партий является важным политическим институтом, представляющим права и интересы каждого слоя членов общества, имеющих разные взгляды в обществе.

Поэтому в каждой демократической стране создаются широкие возможности для деятельности политических партий.

Kalit so'zlar: siyosiy partiya, fikirlar hilma xilligi, demokratiya, demokratik

davlat, fuqarolik jamiyati, qonu ustuvorligi.

Key words: political party, diversity of opinions, democracy, democratic state, civil society, rule of law.

Ключевые слова: политическая партия, плюрализм мнений, демократия, демократическое государство, гражданское общество, правовое государство.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgust kuni mustaqillikka erishganidan so'ng o'zining davlat ramzlari va shu bilan birga o'zining mustaqil siyosiy partiyalariga ham ega bo'ldi. Biz avvalo partiya so'ziga, partiyaning nima ekanligiga, partiyaning nima sababdan yurtimizga kerakligiga to'xtalib o'tsak. Partiya¹ (lotincha partio-bo'lak, qism) degan ma'nolarni anglatadi. Partiya bu – ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilot hisoblanadi. Partiyalar yurtimizga oddiy xalq va fuqarolar hamda yuqori davlat tashkilotlar o'rtasidagi ko'prik desak mubolag'a bo'lmaydi. Bizning yurtimiz ko'ppartiyaviylik asosiga qurilgan. Biz avvalo ko'ppartiyaviylik so'ziga to'xtalib o'tsak. Ko'ppartiyaviylik demokratik yo'lga kirgan davlat va jamiyatlarga xos hisoblanib, jamiyat taraqqiyotiga fikrlar xilma-xilligiga asoslanadi. Hozirgi kunda yurtimizda beshta partiya faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning har birini o'z o'рни va vazifasi bor.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI

O'z o'рни va vazifasiga ega partiyalardan biri bu. O'zbekiston xalq demokratik partiyasidir. Bu partiya Mustaqillik yillarida ilk tashkil topgan partiyadir. Xalq demokratik partiyasiga 1991-yilning 1-noyabrda asos solingan². Har bir partiyaning o'z maqsadi va vazifasi bo'lganidek bu partiyaning ham maqsad va vazifasi – ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Mazkur partiya tashkil etilganidan hozirgi kunga qadar besh marotaba Prezident saylovlarida hamda parlament saylovlarida ishtirok etib, parlamentda o'z fraksiyasini tashkil etishga erishadi. Bu partiya tashkil etilganidan buyon xalqimizning ijtimoiy himoyaga muhtoj qismining ahvoli ancha yaxshi tarafga o'zgardi. Bu partiyadan yurtimizning Birinchi Prezidenti I.A Karimov yetishib chiqqan. Xalq demokratik partiyasiga 1991-yil 1-noyabrda – O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining 1- ta'sis qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy Ustavi va dasturini qabul qildi, uning ijtimoiy-siyosiy faoliyatining ustuvor yo'nalishini belgiladi. Partiya yangi tashkil topgan paytlarida markaziy kengashning birinchi kotibi etib Mahmudjon Mo'minovich Rasulov saylangan. Qurultoy ishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov va so'zga chiqadi. Haftasiga uch marotaba o'zbek tilidan chop etiladigan "O'zbekiston

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Partiya>

² <https://xdp.uz/history>

ovozi” gazetasi partiyaning markaziy bosma nashriga aylandi. 1991-yil dekabr oyida partiya O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olindi O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylikning rivojlanish tarixida o‘z o‘rniga ega partiyalardan yana biri O‘zbekiston “Vatan taraqqiyoti” partiyasidir. Ushbu partiya 1992- yil tashkil topgan, 1999-yili “Fidokorlar” Milliy Demokratik Partiyasi ta‘sis etildi³. U O‘zbekiston fidokorlar maqsadlari va intilishlarini qo‘llab-quvvatlaydigan siyosiy uyushma sifatida dunyoga keldi. 2000-yil aprelda “Vatan taraqqiyoti” partiyasi va “Fidokorlar” milliy-demokratik partiyasining qo‘shma qurultoyi bo‘lib, unda har ikki partiya harakati, faoliyat dasturi yakdilligi muhokama qilinadi, ularning birlashib ishlashlari maqsadga muvofiq degan xulosa asosida 2ta partiya birlashdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida tashkil topgan partiyalardan yana biri bu – O‘zbekiston “Adolat” sotsial demokratik partiyasidir⁴. Bu partiya 1995-yil fevralda tuzilgan. Sotsiol-demokratik partiyalarning asosiy maqsadi jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan. Partiya shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlardagi sotsiol-demokratik yo‘nalishdagi partiyalar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yishga va xalqaro sotsiol- demokratik harakatlarda faol ishtirok etishga intilmoqda. O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi o‘rta sinf va ehtiyojmand aholi tabaqasiga tayanadi, ularning siyosiy va ijtimoiy idoralarini ifodalashga intiladi. Bu partiya o‘z nomidan ko‘rinib turganidek jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni adolat yuzasidan, qonuniy yo‘l bilangina hal qiladi. Adolat sotsial-demokratik partiyasi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘ydi va ularni birma ketinlik bilan amalga oshirishga intilmoqda. Bularga huquqiy demokratik davlat qurish, maamlakat mustaqiligini mustahkamlash, vatanga sodiq xizmat qilish, adolatli fuqaroviy jamiyat qurish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy demokratiya talablariga hamda mamlakatimizda yashab turgan barcha millat va elatlarning orzu-umidlariga monand shart-sharoit yuzaga keltirishga hissa qo‘shish kabilarni ustuvor vazifa sifatida o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Ushbu partiyaning g‘oyaviy negzini sotsial-demokratiyaning uch asosiy pirinsipi tashkil qilib ular jumlasiga siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy adolatni va qonun ustuvorligini ta‘minlash tashkil etadi. Keyingi Milliy qadriyatlarimizni shu kungacha va bundan keyin yetib kelishiga sababchi bo‘lgan partiya bu – Milliy tiklanish demokratiyasidir. Ushbu partiya 1995-yil 3-iyunda bo‘lib o‘tgan ta‘sis qurultoyida tashkil topgan. O‘zbekiston Milliy tiklanish Demokratik partiyasi teyran milliy ruh va dunyo qarashga ega bo‘lgan, ruhan va qalban vatanparvarlik g‘oyalarini, siyosiy jihatdan o‘z taqdirini o‘zi belgilashga o‘z-o‘zini boshqarishga intilayotgan, o‘zligini anglash, milliy birlik va milliy tiklanishni muhim hayotiy maqsadlari deb ifodalayotgan fuqarolarning qarashlari va manfaatlarini birlashtiradi. O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasining borligi va ishlayotganligi sababli bizning

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Fidokorlar_milliy_demokratik_partiyasi

⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Adolat_sotsial-demokratik_partiyasi

milliy qadriyatlarimiz va milliy kiymlarimiz yo'qolib ketmasidan hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Bu partiya faoliyat ko'rsatar ekan bizning milliy qadriyatlarimiz kelgusi avlod va avlod vakillariga ham yo'q bo'lib ketmasidan yetib boradi. Har bir narsaning o'z o'rni bo'lganidek O'zbekiston Liberar demokratik partiyasining ham alohida o'rni va ro'li bor. Bu partiya 2003-yil noyabrda tashkil topgan⁵. Bu partiyaning vazifasi bir qator tashabbuskorlar – kichik biznes vakilari, tadbirkorlar va fermerlardan iborat mulkdorlar qatlami ishlab chiqarishning yuqori malakali mutahasislari hamda boshqaruv hodimlari, ishbilarmonlar manfaatlarini ifoda etadigan va himoya qiladigan umummilliy siyosiy tashkilotdir. Bu partiyaning biz yaxshi ishlayotganligini yurtimizda tadbirkor va ishbilarmonlarning ko'payganligidan ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, yosh tadbirkorlarga keng yo'llar ochib berilib ularning tadbirkorlik bilan shug'ullanishiga yetarlicha shart-sharoitlar davlatimiz tomonidan yaratib berilmoqda. Mening fikrimcha, ushbu partiyaning borligi, ishlayotganligi bois ham yurtimizda tadbirkorlar yildan yilga ko'payib bormoqda. Bularning hammasi yurtimizning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning o'tgan yillar davomidagi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak ularning rivojlanishi uchun huquqiy asos yaratilayotganini ko'rishimiz mumkin. Buni biz ekologik harakatining alohida partiya sifatida tashkil topganligida ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu partiya o'z ishini 2008-yil boshlagan bo'lsa, bugungi kunda u alohida partiyadir. Ushbu partiya 2019-yil 24-yanvarda Adliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Ekologik partiyasi davlat ro'yhatidan o'tkazildi⁶. Yangi partiyaning asosiy maqsadi barqaror rivojlanishga, ekologiya havfsizlikka erishish, hozirgi va kelajak avlod uchun tabiiy resurslarni saqlash va qulay atrof muhitni yaratishga yo'naltirilgan davlat siyosatini ro'yobga chiqarishini taminlash, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni saqlash, davlat, jamiyat va mamlakat har bir fuqarosining vazifasi bo'lishiga erishishga ko'maklashishga qaratilgan. Mazkur partiyaning yuzaga kelishining asosiy sabablaridan biri global ekologik muammolarning dolzarblashuvi va sonining ortib borishidir. O'zbekistonda Ekologik partiyani tashkil etish hayotiy zaruratga aylangan edi. Bu partiya tashkil etilganidan buyon yurtimizda ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari jadal ravishta olib borilmoqda. Bundan tashqari har xil ekologik muammolarning asta sekinlik bilan yechimi topilmoqda. Mana partiyalar yurtimizga va bizga nima uchun kerak, agar partiyalar bo'lmasa yurtimizni bugungidek rivojlanishida ko'rmagan bo'lar edik. Partiyalar borligi va ishlayotganligi bois, yurtimiz va xalqimiz yuksalishda va rivojlanishdadir. Har bir partiya o'zining maqsad va vazifasidan kelib chiqqan holda faoliyat ko'rsatmoqda.

⁵ https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Liberal_demokratik_partiyasi

⁶ <https://daryo.uz/2019/01/24/ozbekiston-ekologik-partiyasi-davlat-royxatidan-otkazildi/>

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida mavjud siyosiy partiyalarning faoliyat olib borishi uchun huquqiy asos eng avvalo, bu bosh qomusimiz bo'lmish konstitutsiyamizdir.

Konstitutsiyamizda belgilangan o'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xima xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas⁷ normasining mavjudligi respublikamizda turli xil qarashlarga, dasturlarga, xilma-xil fikrlarga tayangan jamiyatning turli qatlamlarini o'z ichiga olgan siyosiy partiyalarning faoliyat yuritishi uchun huquqiy asosdir.

Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasi hisoblanadi. O'zbekiston respublikasining 1997-yil 7-yanvardagi "Siyosiy partiyalar tog'risida"gi qonuniga muvofiq Siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, xohish-irodani erkin bildirish, partiya ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a'zolarining teng huquqliligi, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi⁸ deb takidlangan. Unga muvofiq Davlat siyosiy partiyalar huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza etilishini kafolatlaydi, ustavda belgilangan o'z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning va ular mansabdor shaxslarining siyosiy partiyalar ichki ishlariga aralashishlari yoxud, agar faoliyat qonunga hamda o'z ustavlariga muvofiq amalga oshirilayotgan bo'lsa, ular faoliyatiga u yoki bu tarzda to'sqinlik qilishlari man etiladi, siyosiy partiyalarning davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashuviga yo'l qo'yilmaydi, siyosiy partiyalar tashkilotlarining tadbirlari asosan ular a'zolarining ishdan tashqari vaqtida va ana shu partiyalar mablag'i hisobidan amalga oshiriladi, xususiy ish beruvchilarning o'z xodimlaridan ular mehnat vazifalarini bajarayotgan paytda partiya nomidan siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishni talab qilishi man etiladi, siyosiy partiyalar apparati xodimlariga nisbatan mehnat to'g'risidagi, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta haqidagi qonunchilik tatbiq etiladi deb belgilangan. Shuningdek, ushbu qonunda siyosiy partiyalarga o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish, saylab qo'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish, qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish, partiya faoliyati bilan bog'liq

⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 12-m

⁸ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 26.12.1996 yildagi 337-I-son

yig'ishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish, qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlari o'rnatish kabi huquqlar berilgan.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi demokratik davlat bo'lganligi sababli davlat va jamiyat hayotini tartibga solish uchun turli xil qarash larga ega bo'lgan siyosiy partiyalar kerakdir.

Bugungi kunda O'zbek millatini, xalqini milliy qadriyatlarini hisoblanadigan turli xil chet davlatlaridagi muzeylarda saqlanayotgan xalqimizga tegishli qadimgi ajdodlarimizdan qolgan yodgorliklarni, ilmiy qo'lyozmalar, adabiyotlarni, san'at asarlarini yurtimizga qaytarish choralari ko'rish bugungi kundagi mamlakatimizda mavjud siyosiy partiyalarning vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim. Shuningdek, mamlakatimizdan chet ellarga mehnat migrant sifatida ketayotgan yurtdoshlarimizga huquqiy, ijtimoiy yordam ko'rsatish uchun kerakli chora-tadbirlarni ko'rish, mamlakat fuqarolarining siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy ongini oshirib borishda peshqadam bo'lish, mamlakatda fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlashda lokamativ vazifasini bajarish jamoatchilik nazoratini shakllantirish siyosiy partiyalarning bugungi kundagi eng dolzarb ustuvor vazifalari bo'lib hisoblanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "SIYOSIY PARTIYALAR TO'G'IRISIDA" 26.12.1996 yildagi 337-I-son
3. O'zbekiston respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 2019-yil 9- yanvardagi 5816-sonli farmoni.
4. Muxammedov O.X Huquqshunoslik asoslari Toshkent 2020-yil
5. A.Saidov, U Tadjixanov, X Odilqoriyev. Davlat va Huquq asoslari Toshkent 2002-yil. Internet ma'lumotlari:
 1. Lexs uz.
 2. Arxiv.uz
 3. Ziyonet.uz.
 4. <https://lex.uz/docs/-20596>
 5. <https://daryo.uz/2019/01/24/ozbekiston-ekologik-partiyasi-davlat-royxatidan-otkazildi>
 6. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Fidokorlar_milliy_demokratik_partiyasi
 7. ¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Adolat_sotsial-demokratik_partiyasi